

“TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI”

Ibragimova Mayram G‘ulomovna

Qo‘qon DU texnologik ta’lim
va kutubhonashunoslik
kafedrası dotsenti.

Jo‘raboyeva Sadoqatbonu Ilyosbek qizi

Qo‘qon DU texnologik ta’lim
talabasi

Аннотация.

При организации профориентационной работы в школе рекомендуется эффективно использовать элементы новых педагогических технологий, таких как педагогические игры, конференции, самостоятельные эксперименты, совместные мероприятия с местными сообществами, производственными предприятиями, наряду с традиционными практическими занятиями, беседами, диалогическими дискуссиями. На что обращает внимание учитель при формировании целостной личности? Прежде всего, необходимо уделять повышенное внимание развитию творческой активности и талантов, интереса к науке и теоретических знаний молодежи.

Ключевые слова: интерес, профессия, семья, исследование, личность, учитель, анализ, образование, проблема, деятельность.

Abstract: When establishing vocational guidance at school, it is recommended to effectively use elements of new pedagogical technologies, such as pedagogical games, conferences, independent thinkers, events held jointly with communities of the neighborhood and production enterprises, along with traditional practical exercises, conversations, and dialogical discussions. What does a teacher pay attention to in shaping a complete person? First of all, it is necessary to pay increased attention to the development of creative activity and talent, interest in science, and theoretical knowledge of young people.

Keywords: interest, profession, family, research, individual, teacher, analysis, education, problem, activity.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyat - bu ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, usullar,

vositalar hamda boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali sifat jihatidan yangi natijalarga erishishni anglatadi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi ta’lim tizimi xodimlaridan ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda hamda ta’lim tizimining xodimi, ayniqsa, pedagoglar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Zamonaviy jamiyatda bilim va texnologiyalar tez sur‘atlarda rivojlanayotgani sababli oliy ta’lim muassasalari oldida talabalarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki kasbiy faoliyatga tayyorligi, ya’ni kasbiy moyillikni shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1] Kasbiy moyillik - bu shaxsning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy maqsadga intilishi va faoliyatga tayyorligi bo‘lib, uning samarali faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bugungi ta’lim jarayonida faqat ma’lumot berish emas, balki talabalarni faollikka undaydigan interfaol metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida, yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish assosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yondashuvchanlikni talab etadi. [2] Ta’lim sifati jamiyatdagi ta’lim jarayonining holati va samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanib, ta’lim jarayonida erishilgan natijalarning me’yoriy talablar ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga muvofiqligini aniqlaydi.

Pedagogik jarayonga tatbiq etganda innovatsiya ta’lim tizimidagi ixtiyoriy o‘zgarish emas, balki yaxlit ta’lim tizimi yoki uning ba’zi bir qismlari samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan maqsadli o‘zgarish hisoblanadi. Bu o‘zgarish yangilikni tatbiq etish asosida amalga oshiriladi. Demak, pedagogik innovatsiyalar ta’lim maqsadi, mazmuni, ta’limni tashkil etishning shakl va usullari, o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish, mazkur faoliyatni boshqarishdagi maqsadga yo‘naltirilgan, har tomonlama o‘ylab chiqilgan aniq o‘zgarishlarni nazarda tutadi.[3]. Bir vaqtning o‘zida innovatsiyalarni ta’limning tashkiliy, metodik va amaliy jihatlarida tatbiq etilishi ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Interfaol metodlar ta’lim jarayonida talabaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, shuningdek, kasbiy sohada duch kelinadigan vaziyatlarni boshqarishga tayyorlaydi. Ushbu maqolada interfaol metodlarning mohiyati, turlari, ularning kasbiy moyillikni shakllantirishdagi o‘rni va ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Ta’lim sifati nafaqat ta’lim jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Bu omillar ta’lim, ta’lim maqsadi, ta’limni tashkil etish shakl, metod vositalari, o‘qituvchilar tarkibi salohiyati, pedagogik faoliyati, ta’limiy dasturlar va ta’lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart- sharoitlari, ta’limning tashkiliy – huquqiy ta’minoti, o‘quv jarayonining moddiy texnika ta’minoti, axborot va uslubiy ta’limot, shuningdek maktabdagi tarbiyaviy ishlar sifatidan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim-tarbiya ishlarini har bir soha jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshirish, ta’limning hamma uchun tengligini ta’minlashi, o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ular fuqarolik tuyg‘usi, oila va davlat oldida mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil bilim olish va o‘zlarini har tomonlama rivojlantirish uchun maksimal darajada qulay sharoitlarni yaratishi lozim. Sog‘lom avlodni tarbiyalashda jamiyatning barcha jabhalarida ijobiy ishlar o‘z samaradorligini bermoqda. Ta’lim – tarbiya tizimiga nazar tashlar ekanmiz, o‘tmish ma’rifiy merosimizda eng muhim masala inson masalasi, uni har tomonlama barkamol tarbiyalash hamisha muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Ta’limdagi innovatsiyalar, avvalo, o‘quv jarayonining mazmuni va metodikasini yangilashga xizmat qiladi. An’anaviy ta’lim modelidan farqli o‘laroq, innovatsion yondashuvlar o‘quvchini faollikka undaydi, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. .[2]

Davlatimiz rahbari raxnomoligida qisqa vaqt ichida o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi sohasidagi o‘zgarishlar tahsimga sazovordir. Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, yoshlarni kasbiy ta’limga yaqin jalb etish va ularga sifatli kasbiy ta’lim berish kabi vazifalarga bu darajada qisqa davrda erishish hali tarixda yuz bermagan. Kasb – xunar maktablari va akademik litseylarning barpo etilishi, ularda respublika uchun zarur bo‘lgan barcha mutaxassislik va kasblar bo'yicha ta’limning olib borilishi hamda boshqa bir qator ishlar – kasb sohasi O‘zbekiston uchun o‘ta dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga o‘quvchilarni ta’lim jarayonida kasbga yo‘naltirish ishlarini yanada oshirish uchun bir qator ishlarni yo‘lga qo‘yish zarur deb bilamiz.

Jumladan:

- umumiy ta’lim yoki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchini mustaqil kasb tanlashiga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar kiritilishi;
- o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan kasb tanlash bo'yicha yaxshi bilim beradigan ommabop adabiyotlarni yaratilishi;

- o‘quvchi yoshlarga yangi kasblar bilan tanishish, o‘rganish va ularni tanlash sohasidagi bilimlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiqdir. Har bir insonning yoshi ulg‘ayib borgani sari uning qiziqishlari o‘zgarib boradi, natijada kasbga nisbatan tanlov ham o‘zgarishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta‘lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir kata tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta‘lim oluvchilarda o‘quv bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini da‘dil, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasida eng ma‘qul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga ega egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri - axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir. [3]

Raqamli platformalar, masofaviy ta‘lim tizimlari, interaktiv metodlar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Natijada, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi.

Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta‘lim oluvchi o‘quvchi, muloqotga kirishuvchanlik, jamoavi faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘qituvchi dars jarayonida mashg‘ultlarning o‘ta faollik bilan qiziqarli ketishiga erishmog‘i lozim. Bundan albatta, interfaol usulidagi darslarga ijodiy va ilmiy yondashish zarur. Chunki o‘qituvchi darsning interfaol o‘tilishini aytgan mahalda o‘quvchilarni fikrlari va qiziqishida turli o‘zgarish b‘lishi tabiiy. Dars jarayonida bu omildan unumli foydalanish darsning samarali kechishini ta‘minlaydi. Demak o‘quvchilarni dars jarayonida faqat tasavvur qilib yoki biror tasvirga qarab chizish, balki darsda shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yangiliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi” ning o‘zaro bir -birlarini xurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, o‘zaro muloqot, tortishuv, eng muhimi, mustaqil ravishda fikrlashish imkoniyatini yaratib berish, interfaol usulda dars o‘tishning muhim shartidir. Bu bilan o‘quvchi yoshlarning nutqi ham rivojlanadi, fikriy tasvirlayotgan ob‘yektga yo‘naltirib, darsda faollikka erishish mumkin.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yoshlikdan qiziqib , ixlos bilan qaysidir bilim chuqqisini egallashga intilish boshlansa, albatta u o‘z natijasini

beradi. Maqsadlar yo‘lidagi manzillarda esa yillar davomida to‘plangan bilim, salohiyat va mehnat insonni yetuklikga sari olib boraveradi. Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Strategik rejalashtirish, monitoring va baholash tizimlarining takomillashuvi ta’lim sifatini nazorat qilish va oshirish imkonini beradi..[4]

Innovatsion muhitda faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga tez moslashadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi va ertangi kunimizni kimlarga topshish kerak ekanligini bugandan harakatini boshlashimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Muslimov N .A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma.- Toshkent: O'zR00 MTV, 2007, 234bet.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.
3. N.Toyloqov va boshqalar.O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish texnologiyasi. Metodik qo`llanma. 2017y
4. B.Qurbonov, M.Muhliboyev, G.Qurbonova. Mehnat ta`limi o`qitish metodikasi, kasb tanlashga yo`llash.O`quv qo`llanma .Guliston. 2013 y